



ON THE HISTORY OF THE EMERGENCE OF PROLETARIAN TOURISM IN UZBEKISTAN

Kahramonjon Matkholiqov

Candidate of Historical Sciences

Associate Professor, National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: USSR tourism policy, proletarian tourism, All-Union Proletarian Tourism and Excursions Society, PTET, Uzbek Proletarian Tourism and Excursions Society, Central Asian tourist routes, tourist bases, mass tourism, totalitarian policies, ideological control, tourism infrastructure.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This article analyzes, based on historical sources, the formation of proletarian tourism in the USSR during the 1920s–1930s and its role in organizing tourism in Uzbekistan. It highlights the activities of the All-Union Proletarian Tourism and Excursions Society (BPTET), the inclusion of Central Asia among the main tourist routes, the establishment of the Uzbek PTET, and the processes of forming its structural organization. Additionally, the article examines, from a scholarly perspective, the construction of tourist bases in the republic, the expansion of the membership system, and the initial practical experiences aimed at developing mass tourism. It is also shown that the intensified totalitarian policies and ideological control in the USSR during the second half of the 1930s led to the dissolution of proletarian tourism organizations. Nevertheless, this short-term activity laid an important historical foundation for the development of tourism infrastructure and management experience in Uzbekistan.

O‘ZBEKISTONDA PROLETAR TURIZMNI VUJUDGA KELISHI TARIXIDAN

Qaxramonjon Matxoliqov

O‘zbekiston Milliy universiteti dotsent

Tarix fanlari nomzodi

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: SSSR turizm siyosati, proletar turizmi, Butunittifoq proletar turizmi va ekskursiyalari jamiyati, PTET, Oʻzbekiston proletar turizmi va ekskursiyalari jamiyati, Markaziy Osiyo turistik yoʻnalishlari, turbazalar, ommaviy turizm, totalitar siyosat, mafkuraviy nazorat, turizm infratuzilmasi.

Annotasiya: Mazkur maqolada 1920-1930-yillarda SSSRda proletar turizmining shakllanishi va uning Oʻzbekistonda turizmni tashkiliy asoslarda yoʻlga qoʻyishdagi oʻrni tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. Unda BPTET faoliyati, Markaziy Osiyoning asosiy turistik yoʻnalishlar qatoriga kiritilishi, Oʻzbekiston PTETning tashkil etilishi hamda uning tarkibiy tuzilmasining shakllanish jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, respublikada turbazalar barpo etilishi, aʼzolik tizimining kengayishi va ommaviy turizmni rivojlantirishga qaratilgan dastlabki amaliy tajribalar ilmiy nuqtai nazardan baholangan. 1930-yillarning ikkinchi yarmida SSSRda kuchaygan totalitar siyosat va mafkuraviy nazorat proletar turizmi tashkilotlarining tugatilishiga olib kelgani, biroq mazkur qisqa muddatli faoliyat Oʻzbekistonda turizm infratuzilmasi va boshqaruv tajribasining shakllanishi uchun muhim tarixiy asos yaratgani asoslab berilgan.

ИЗ ИСТОРИИ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ПРОЛЕТАРСКОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

Кахрамонжон Матхоликов

Кандидат исторических наук

Доцент Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: туристская политика СССР, пролетарский туризм, Всесоюзное общество пролетарского туризма и экскурсий, ПТЭТ, Общество пролетарского туризма и экскурсий Узбекистана, туристские направления Центральной Азии, турбазы, массовый туризм, тоталитарная политика, идеологический контроль, туристская инфраструктура.

Аннотация: В статье на основе исторических источников проанализирован процесс формирования пролетарского туризма в СССР в 1920–1930-е годы и его роль в становлении туризма в Узбекистане на организационных началах. Освещены деятельность Всесоюзного общества пролетарского туризма и экскурсий (ВПТЭ), включение Центральной Азии в число основных туристских направлений, а также создание Общества пролетарского туризма и экскурсий Узбекистана и формирование его организационно-структурной системы. С научной точки зрения оценены процессы создания турбаз в республике, расширения членской базы и накопления первоначального практического опыта в развитии массового туризма. Обосновано, что усиление

тоталитарной политики и идеологического контроля в СССР во второй половине 1930-х годов привело к ликвидации организаций пролетарского туризма, однако их кратковременная деятельность заложила важные исторические основы для формирования туристской инфраструктуры и управленческого опыта в Узбекистане.

Kirish. XIX-asrning ohirlarida O‘zbekistonda sanoat korxonalari va XX asrning boshlaridan esa ho‘jalik yuritishning yangi shakllari: kolxoz, savxozlarning vujudga kelishi aholining mehnat va dam olish tartibida yangi ijtimoiy munosabatlarni qaror toptirib, ommaviy turizmning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratdi. 1931-yil 1-fevral holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda kollektivlashtirish darajasi barcha xo‘jaliklarning 37,2 foiziga etadi, shu bilan birga 1930-yilning yozida kolxozlardagi paxta maydoni respublikadagi barcha paxta maydonining 1/3 tashkil etgan [1]. Bu jarayonlarning eng asosiy ko‘rinishlaridan biri - proletar turizm shakllanishi bo‘lib, u ishchi sinfining madaniy dam olishi, jismoniy sog‘lomlashuvi, ijtimoiylashuv imkoniyatlarini kengaytirish va mafkuraviy birlashtirish vositasi sifatida namoyon bo‘ldi. Proletar turizm tushunchasi bazar munosabatlariga asoslangan, shaxsiy iste‘molga qaratilgan turizmdan farqli ravishda ijtimoiy tenglik, ommaviylik va tarbiyaviy vazifalarga asoslangan shakl sifatida yuzaga keldi. Uning asosiy mohiyati ishchilarning tarbiyaviy, ma‘rifiy va siyosiy faolligini oshirish, bir vaqtning o‘zida jamoaviylik madaniyatini mustahkamlashdan iborat edi. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi sanoatlashish, urbanizatsiya, ish sharoitlarining og‘irligi, ish soatlarining ko‘pligi ishchilarda dam olish va salomatlikni tiklash ehtiyojini kuchaytirdi. Yevropa davlatlarida kasaba uyushmalari va ishchilar harakatining kuchayishi, maosh to‘lanadigan ta‘tilning huquqiy asos sifatida tan olinishi ommaviy turizmning vujudga kelishiga turtki berdi.

Biroq, proletar turizmning eng mukammal va ideologik jihatdan izchil shakli aynan Sovet Ittifoqida shakllandi deb hisoblash mumkin. Uning asosiy vazifalari ishchilarni sog‘lomlashtirish, madaniy saviyasini oshirish, mamlakatning davlat va jamiyat qurilishi bilan tanishtirish hamda aholida socialistik vatanparvarlikni shakllantirishdan iborat edi. Sayohatlar asosan piyoda, velosipedda, poxodlarda xarakatlanish, qishloqlar va yangi industrial ob'ektlarga ekskursiyalar ko‘rinishida bo‘lib, ularda mafkuraviy targ‘ibot muhim o‘rin tutardi.

Tahlil va natijalar. 1920-yillarning ikkinchi yarmida turizmni ommaviy harakat sifatida shakllantirish uchun kurash kuchaydi. Unda madaniy dam olish masalasi partiyaning umumiy siyosiy-mafkuraviy vazifalari bilan bog‘landi. Kasaba uyushmalari, komsomol, maorif idoralari va bir qator ilmiy-ma‘rifiy nashrlar turizmni aholini vatanparvarlik va xalqlar do‘stligi ruhida

tarbiyalashning samarali vositasi sifatida ko'ra boshladi. 1926-1927-yillarda turizm bo'yicha ko'plab mintaqaviy gazeta sahifalari, maqolalar paydo bo'ldi, mahalliy tashkilotlar turistik guruhlar, byurolar, ekskursiyalar tarmog'ini yaratdi. Biroq tashkilotchilik borasida yagona Markaziy boshqaruvni yaratish masalasi ziddiyatli kechdi. Jumladan, komsomollar uni umumittifoq, ommaviy darajaga olib chiqishni istagan bo'lsa, profsoyuzlar va maorif idoralari turizmni o'z yo'nalishlarida mustaqil ravishda rivojlantirishga intildi. 1927-yilda VLKSM sekretariati umumittifoq turistik jamiyatni tuzishni "vaqti emas" deb topishi tashabbuskorlar tomonidan keskin tanqid qilindi. Bunday cheklovlar yoshlarni ROT (Rossiykaya obtshestvo turistov ga yo'naltirib qo'yadi va turizmni komsomol nazoratidan chiqaradi – deb xisoblandi. Natijada 1920-yillar oxirida turizm faol rivojlansa ham, uni markazlashtirish bo'yicha siyosiy-idoralararo kelishuvlar bo'lmaganligi sababli yagona umumittifoq jamiyatni tashkil etish amalga oshmadi. Masalan, 1928-yil 23-iyulda VLKSM MK targ'ibat-tashviqot bo'limi tomonidan proletary turizm jamiyatini (PTJ) tuzish bo'yicha berilgan taklif qabul qilinishiga qaramasdan rasmiy hujjatlarda 1928-yil iyulida 1929-yil yoziga qadar rasmiy hujjatlarda PTJ emas, aynan ROT tilga olinadi [2]. Bu esa uning faoliyati rasman davom etganini ko'rsatadi.

1930 yil 8 martda SSSR Xalq Komissarlari Kengashi "Sovetskiy turist" DAJni RSFSR proletar turizmi jamiyati bilan birlashtirish va ular asosida Butunittifoq proletar turizmi va ekskursiyalar jamiyati (BPTE)ni tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildi. Ittifoqda turistik marshrutlar asosan sanoatlashgan xududlar va dam olish maskanlarini qamrab olgan bo'lsa, 1930 yil yozidagi BPTE Markaziy Soveti Kavkaz, Qrim, Ukraina, Kolskiy yarimoroli, Oltay va Ural bilan bir qatorda Markaziy Osiyo ham asosiy yo'nalishlar qatoriga kiritish rejalashtirildi [3].

Markaziy kengashning 1930 yilgi rejasida 1931 yilda O'zbekiston PTETga 15 000 a'zo jalb etish rejalashtirilgan.[4] Bu ko'rsatkich o'sha davr uchun katta raqam hisoblanib, turizmning ommaviylashuvi va ishchi-sinfning madaniy dam olish huquqini ta'minlash siyosati bilan bog'liq. O'sha yilning 1 mart holatiga ko'ra 3 600 a'zo mavjud bo'lgani holda, yil oxirigacha a'zolar sonini besh baravarga ko'paytirish rejasi turizmni keng jamoatchilikning ichiga olib kirish maqsadini ko'rsatadi. 1933 yil noyabr xolatiga ko'ra SSSRda a'zolar soni 1 083 000 ni tashkil qilgan bo'lsa O'zbekistonda bu ko'rsatkich 25 ming (50% ishchilar, 5 % kolxoz, sovxoz dexqonlar)ni tashkil qilgan. Eng ko'p a'zolar tabiiy ravishda Moskva va Leningrad shaharlarida 160 mingdan a'zoni tashkil qilgan. O'rta Osiyo davlatlaridan Qozog'istonda 10 ming, Turmanistonda 8 ming, Qirg'iziston va Tojikistonda 5 mingni tashkil qilgan bo'lsa, Kavkazorti davlatlari Gruziyada 35, Ozorbayjonda 30, Armanistonda 30 ming[5] nafarni tashkil qilgan.

Yuqoridagi ma'lumotlar SSSRning yirik industrial markazlari - Moskva va Leningradga har biri 160 mingdan a'zo mavjud bo'lib, bu O'zbekiston ko'rsatkichidan bir necha barobar yuqori ekanligi ko'rsatadi. Bunday keskin farq sanoat ulushi, aholi urbanizasiyasi va ishchi sinfi sonining

ulkan tafovutidan kelib chiqadi. Kavkazorti respublikalarida ham ko'rsatkichlar O'zbekistondan yuqori bo'lganligini bu hududlarda sanoat tarmoqlari rivojlangani va shaharlashuv darajasining tarixan yuqori bo'lgani bilan bog'liq.

Mamlakatda ham turizmning tashkilotchilik asoslarini mustahkamlash, uning boshqaruv va tashkiliy tizimini shakllantirish uchun maxsus markazlar tuzildi. 1931 yilda Toshkentda O'zbekiston PTET kengashi va Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Farg'onada 4 ta hududiy tashkilotlar faoliyat yuritgan[6]. O'zbekiston PTET o'z tasarrufida Toshkent, Samarqand va eski Buxoro shaharlarida uchta turbazaga ega bo'lgan(1932 yilda Butunittifoq bo'yicha turbazalarni soni 300 tadan ortgan[7]. Barcha bazalar to'g'ridan-to'g'ri O'zSSR turizm Kengashiga bo'ysunib ishlagan[8]. O'zbekiston PTET Sovet davridagi turizm siyosatining asosiy tashkiloti sifatida faoliyat yuritgan bo'lib, uning tarkibiy tuzilmasi partiya va davlat yo'nalishlariga mos holda shakllantirilgan. Arxiv xujjatlarini o'rganish orqali shu narsa ma'lum bo'ldiki, tashkilotda bitta rais, ikkita bo'limda bo'lim boshliqlari va 3 ta xodim faoliyat yuritgan va ularning lavozim vazifalari quyigicha bo'lgan. Umumiy hisob-kitobga ko'ra, O'zbekiston OPTE xodimlarining yillik xarajatlari 15 300 rublni tashkil qiladi [9]. Bu summa tashkilotning iqtisodiy imkoniyatlari, kadrlar siyosati va turizm sohasidagi institusional rivojlanish darajasi haqida ma'lum bir tasavvur hosil qiladi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, proletar turizm davrida mehnat haqi lavozimning siyosiy ahamiyati, tashkiliy vazifasi va ideologik yuklamasiga qarab belgilangan. Opte kabi tashkilotlar Sovet tizimida faqat iqtisodiy emas, balki mafkuraviy vazifani ham bajargani uchun, ayrim lavozimlarning maoshi bundan kelib chiqqan holda yuqoriroq belgilangan.

Milliy arxivda saqlanayotgan hujjatlardan ma'lum bo'ladiki 1931 yilda Toshkent, Chimyon, Samarqand, Buxoro, shaxta-Aral, Dalvarzin, Farg'ona va Andijonda jami 8 ta moslashtirilgan ekskursiya bazasini mavjud bo'lgan. Ularni ta'mirlash va zarur inventarlarni etkazib berish ishlari har bir baza uchun o'rtacha 2000 rubldan hisoblanib, jami 16000 rublni tashkil qilgan. Toshkent shahrida bino topilmagani sababli, observatoriya bog'ida (observatoriya haqida to'liq ma'lumot berilmagan) 15 ta palatkadan iborat vaqtinchalik lager tashkil etilgan bo'lib, har bir palatka 6 kishi uchun mo'ljallangan va 140 rubldan, jami 2100 rubl sarf qilingan. Chimyonda tog'-turistik stantsiya uchun kurort boshqarmasi bino ajrata olmagan o'tovlardan iborat lager tashkil etilgan, chunki buning uchun 10 o'tov xarid qilinib, har biri 700 rubldan jami 7000 rubl to'langan.

8 ta ekskursiya bazasini jihozlash ularning quyidagi sig'imiga asoslanib amalga oshirilgan: Toshkent – 100 kishi, shaxta-Aral – 35 kishi, Chimyon – 70 kishi, Samarqand – 70 kishi, Dalvarzin – 35 kishi, eski Buxoro – 70 kishi, Farg'ona – 60 kishi va Andijon – 35 kishi. Umumiy sig'im 475 o'rinni tashkil qilgan. Har bir o'rin uchun krovat, yostq (bolish), matras, ko'rpa, ikki dona

choyshab, ikki dona yostiq joylamasi va idish-tovoq bilan jihozlash uchun 70 rubl talab qilingan. Butun bazalarni jihozlash xarajatlari 33250 rublni tashkil etgan[10].

1936 yil boshlarida turizm va ekskursiya sohasini qayta tashkil etish masalasi hukumat darajasida ko'rib chiqila boshlandi. SSSR Markaziy Ijroiya qo'mitasi Prezidiumi "uning faoliyatini ixtiyoriy jamiyat shaklida davom ettirish maqsadga muvofiq emas" deb topdi va 1936 yil 17 apreldagi "Butunittifoq OPTEni tugatish va turizm hamda ekskursiya funksiyalarini profsoyuzga topshirish" to'g'risidagi qarorga asosan, O'zbekiston PTETda likvidasiya komissiyasini tuzish belgilandi. Komissiya tarkibiga O'zsovpof raisi A.I. Kashirin va Butunittifoq Lenin kommunistik yoshlar Ittifoqi Markaziy qo'mitasi vakili kiritilib, shu yilning 1 iyunga qadar jamiyatni to'liq tugatish taklif etildi [11]. Jamiyatning butun mulki VSSPS ixtiyoriga o'tkazildi va uning tuzilmasida turistik-ekskursiya boshqarmasi tashkil etildi. Shu bilan birga, ommaviy turizm va sport-turizm faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasi Markaziy Ijroiya qo'mitasi huzuridagi Butunittifoq jismoniy madaniyat Kengashiga yuklatildi (1936 yil 21 iyundagi SIK va SNK qaroriga ko'ra u Butunittifoq jismoniy madaniyat va sport qo'mitasiga aylantirildi).

BPTETni tugatilishi bevosita 30 yillarning ikkinchi yarmidan boshlab mamlakatda totalitar tuzimni o'rnatilishi, xalqaro munosabatlardagi xavfsizlik muammolarining kuchayishi va SSSRda mafkuraviy nazoratning kengayishi proletar turizmining tashkilotchilik asoslarini jiddiy qayta ko'rib chiqishga olib keldi. Xususan, fashistik xavf, harbiy bloklarning shakllanishi va mamlakatda "dushmanni qidirish" kampaniyasining kuchaydi. Buning yaqqol dalili sifatida proletar turizmning asosiy rahbarlari Krilenko 1938 yilda hibsga olinib, otib tashlanishi va uning o'rinbosari Gurvich esa "zararli tashkilotda qatnashgan" degan soxta ayblov bilan 17 yilni Stalinning turmalari va lagerlarida o'tkazganini misol qilib keltirish mumkin [12]. Shu bilan birga xorijiy turistlar orasidagi josuslarni fosh etishga alohida e'tibor qaratilgan.

Bularning barchasi O'zbekistonda ham proletar turizm harakatiga jiddiy ta'sir qildi. 1930-yillarning ikkinchi yarmida mamlakatda totalitar nazoratning kuchayishi, xavfsizlikka oid talablarning qattiqlashishi va mafkuraviy tarbiyaning markazlashuvi natijasida mahalliy proletar turizm tashkilotlari ham Markaziy nazoratga bo'ysundirildi. Asosiy rahbarlar ustidan qilingan repressiyalar O'zbekistondagi proletar turizmni faoliyatini keskin pasaytirdi, uning avtonomiyasi va tashkiliy mustaqilligi cheklandi. Shu tariqa, SSSRdagi siyosiy va xavfsizlik sharoitlari mahalliy proletar turizmni ham ommaviy va ideologik nazorat ostidagi harakatga aylantirdi, unga ilgari mavjud bo'lgan tashkiliy erkinlikni qisqartirdi.

Xulosa. XX asrning 1920–1930 yillarida SSSRda proletar turizmining shakllanishi O'zbekistonda ham turizmning tashkiliy asoslarda yo'lga qo'yilishi uchun muhim zamin yaratdi. Xususan, 1930-yil yozida BPTET Markaziy Soveti tomonidan Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston hududi asosiy turistik yo'nalishlar qatoriga kiritilishi rejalashtirilgani bu hududning

tabiiy-geografik, tarixiy va ijtimoiy imkoniyatlari ittifoq miqyosida e'tirof etilganidan dalolat beradi. Shu asosda O'zbekiston PTET tashkil etilib, uning tashkiliy-tuzilmaviy tizimi shakllantirildi, joylarda bo'limlar ochildi, a'zolar safi kengaydi va turizm faoliyati asta-sekin ommaviylashib bordi. Respublikada turli turbazalarni barpo etilish, marshrutlarning ishlab chiqilishga urinishlar turizmni amaliy jihatdan rivojlantirishga xizmat qildi.

Biroq, 1930-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab butun ittifoq miqyosida kuchaygan totalitar siyosiy nazorat, mafkuraviy qat'iylik va xavfsizlik masalalarining ustuvor qo'yilishi proletar turizmi tashkilotlarining faoliyatini keskin chekladi va oxir-oqibat PTETning tugatilishiga olib keldi. Natijada, mazkur tashkilot uzoq muddat va erkin faoliyat yuritmagan bo'lsa-da, uning qisqa davrdagi faoliyati O'zbekistonda turizmni davlat va jamoat tashkilotlari orqali boshqarish tajribasini shakllantirdi, moddiy-texnik baza yaratish, marshrutlarni ishlab chiqish va ommaviy turizmni tashkil etish borasida muhim dastlabki tajribani berdi. Aynan shu tajriba keyingi davrlarda turizmning boshqa tashkiliy shakllarda rivojlanishi uchun muayyan tarixiy asos vazifasini o'tadi va O'zbekistonda turizm tizimining shakllanish jarayonida muhim bosqich sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. И. Алкин. Средняя Азия экономико-географический очерк. Кара-Калпакстана, Киргизстана, Таджикистана, Туркменистана и Узбекистана. М.: Издание научно-исследовательской ассоциации по изучению национальных и колониальных проблем. 1931. ст.369
2. Юрчикова Е.В. «Туризм в СССР в конце 1920-х - начале 1930-х годов: организационные и пропагандистские аспекты движения». Дисс.к.и.н. М.: 2006.ст 32-43
3. O'sha joyda. B.62.
4. O'zMA 837 fond, 9-ro'yhat, 667-yig'majild, 34 varaq
5. O'zMA 1890 fond, 1-ro'yhat, 2,-yig'majild, 12 varaq
6. O'zMA 837-fond, 9-ro'yhat, 667-yig'majild, 37 varaq
7. Шульгина О.В., Шульгина Д.П. Феномен «пролетарского туризма» в 30-е годы XX века: объекты посещения, информационное обеспечение, идеология. М.: Исторический журнал: научные исследования, 2018 – N5
8. O'zMA.1890-fon, 1 ro'yhat, 27-yig'majild, 20 varak
9. O'zMA, 837 fond, 9-ro'xat ,667 yig`majild, 34 varaq
10. O'zMA, 1890 fond, 1 ro'yhat, 30 yig`majild, 2 varaq.
11. O'zMA 837-fond. 23 ro'yhat, 8 yig'majild, 73 varaq
12. Юрчикова Е.В. «Туризм в СССР в конце 1920-х - начале 1930-х годов: организационные и пропагандистские аспекты движения». Дисс.к.и.н. М.: 2006.ст 100